




ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№3

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ

2024



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 3-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда 0561-рақам билан рўйхатга олинган.
ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

Таҳририят ижодий жамоаси:
Бош муҳаррир:
и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир ўринбосари:
и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:
и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Мухаррирлар:
и.ф.д. Ф.А.Сафаров
PhD, доцент И.М.Пардаева
катта ўқит. Ш.З.Ўразов

Техник муҳаррир:
и.ф.н., доц. А.Н.Холиқулов

Корректор:
PhD С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:
PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба чоп этилади.

Ўзбекистон ҳудудида тарқатилади.

Таҳририят манзили:
140100, Самарқанд шаҳар, Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Таҳририят кенгаши раиси:
М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти ректори, и.ф.д., профессор

Таҳририят кенгаши раиси ўринбосари:
Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Таҳрир кенгаши аъзолари:
Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д., профессор
М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.
Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.
М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.
Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.
О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.
М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.
Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.
И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.
К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.
Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.
Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.
Ғ.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.
Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.
Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари
С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.
Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.
А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.
О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.
М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.
З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.
Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод фанлари доктори
Л.Н.Халикова– СамИСИ профессори в.б., DSc
Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти в.б., DSc

Abduvoxid Quldoshevich To‘rayev – SamISI mustaqil izlanuvchisi

TURIZMDA HUDUDLAR SALOHIYATIDAN OQILONA FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI VA TAMOYILLARI

Annotatsiya. Maqolada mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarda hududlarning turistik salohiyatidan oqilona foydalanish masalalari bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan va tegishli xulosalar ishlab chiqilgan.
Kalit so‘zlar: turizm, mintaqa, turistik salohiyat, samara, turmahsulot, turizm infratuzilmasi, turistik resurs, tabiiy resurslar.

Kirish. So‘nggi yillarda turizm sohasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida mamlakatimiz jahon turizm bozorida o‘z o‘rni va mavqeini mustahkamlab bormoqda. Buning natijasida nafaqat ko‘hna shaharlarimizda, balki mamlakatimizning barcha hududlarida turizmni rivojlantirish uchun teng imkoniyatlar yaratmoqda. Bu esa har bir hududning turistik resurslari, imkoniyatlari va salohiyatini o‘rganishga hamda undan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

2019-yil 18-iyulda “O‘zbekiston Respublikasining Turizm to‘g‘risida” Qonunning qabul qilinishi turizm sohasida faoliyat yurituvchi subyektlarning manfaatlarini qonun bilan himoya qilinishini kafolatladi. Natijada, tadbirkorlarga turizm biznesi bilan shug‘ullanishga katta ishonch tug‘ildi va ularga keng yo‘l ochib berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5326-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-135-son Qarorlari va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda hududlarning turistik salohiyatini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Turizm salohiyati tushunchasi va uning xususiyatlari S.Alexandru, P.Rodica, G.Corina, Ş.Altan, J.Wang, X.Huang, Z.Gong, R.Cao[1] hamda MDH olimlaridan T.G.Vinokurova, Y.F.Volkov, A.V.Drozdov[2] va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan. Mamlakatimiz turizm salohiyati hamda undan samarali foydalanish masalalari mahalliy olimlarimiz N.Tuxliyev, M.Q.Pardayev, I.S.Tuxliyev, N.B.Navruz-Zoda, A.A.Eshtayev, B.Sh.Safarov, M.T.Alimova, A.Sh.Berdimurodov[3] va boshqalarning tadqiqot ishlarida atroflicha yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Turizmda hududlar salohiyatidan oqilona foydalanishning

[1] Alexandru S., Rodica P., Corina G. Identifying Cultural Tourism Potentials in Republic of Moldova through Cultural Consumption among Tourists. // Procedia - Social and Behavioral Sciences 188 (2015). - p. 117.; Altan Ş., 2006; Türkiye'de Eko-Turizm Uygulamaları ve Ekonomiye Katkıları, Niğde Üniversitesi SBE, İktisat ABD, Yüksek Lisans Tezi.; Wang J., Huang X., Gong Z., Cao K. Dynamic assessment of tourism carrying capacity and its impacts on tourism economic growth in urban tourism destinations in China. // Journal of Destination Marketing and Management, March 2020, 15(2): 100383. DOI: 10.1016/j.jdmm.2019.100383

[2] Винокурова Т.Г. Ресурсный потенциал развития туризма северных территорий. Автореф. дисс... канд. экон. наук. Иркутск, 2010.; Волков Ю.Ф. Гостиничный и туристский бизнес. Ростов н. - Д: Феникс, 2008.; Дроздов А.В. Экотуризм: определения, принципы, признаки, формы. // Актуальные проблемы туризма 99. Перспективы развития туризма в южном Подмосковье. Сб. докл. и тез. сообщений научно-практ. конференции, 27 апреля 1999. - М., 1999. - С. 122-129.

[3] Тўхлиев Н., Абдуллаева Т. Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана. - Т.: Гос. Науч. Изд. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006. - 386 с.; Пардаев М.Қ., Атабаев Р., Пардаев Б.Р. Туризмни ривожлантириш имкониятлари. - Т.: Фан ва технология, 2007. - 32 б.; Тухлиев И.С ва бошқалар. Туризм асослари. Ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамИСИ, 2010. - 247 б.; Наврўз-Зода Б.Н умумий таҳрири остида. Туристик ҳудуд рақобатбардошлиги. // Монография – Бухоро, 2017. 150 б.; Эштаев А.А. Глобаллашув шароитида туризм индустриясини бошқаришнинг маркетинг стратегияси (Ўзбекистон Республикаси туризм тармоги мисолида). DSc. диссертация автореферати. – Самарқанд: СамИСИ, 2019.; Сафаров Б.Ш. Миллий туристик хизматлар бозорини инновацион ривожлантиришнинг методологик-услубий асосларини такомиллаштириш. И.ф.д. дисс. автореф. – Самарқанд: СамИСИ, 2016.; Алимова М.Т. Ҳудудий туризм бозорининг ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари. И.ф.д. дисс. автореф. – Самарқанд: СамИСИ, 2017.; Berdimurodov A.Sh. Globallashuv sharoitida erkin turistik hududlarni samarali rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo‘llari. Journal of marketing, business and management (JMBM)/SJIF Factor: 4.28 https://cyberleninka.ru/article/n/globallashuv-sharoitida-erkin-turistik-hududlarni-samarali-rivojlantirishning-tashkiliy-iqtisodiy-mexanizmini-takomillashtirish-yo

nazariy asoslari va tamoyillarini tadqiq qilishda kuzatish, qiyoslash, tizimli va qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Turizm sohasi hozirgi vaqtda iqtisodiyotning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, u iqtisodiyotning barcha sohalariga o‘z ta’sirini ko‘rsatib kelmoqda. Shu bilan bir qatorda, uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ham tobora ortib bormoqda. Yurtimizda, turizmni rivojlantirishga davlat tomonidan alohida e’tibor qaratilib, bu tarmoqni xalq xo‘jaligining ustuvor yo‘nalishga ega bo‘lgan tarmoq sifatida strategik maqom berildi. Kelajakda mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda asosiy tarmoqlardan biri bo‘lib, u xalq xo‘jaligining oldiga qo‘yilgan ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajarishda, aholini ish o‘rinlari bilan ta’minlash, hudud iqtisodiyotining rivojlanishini diversifikatsiya qilish, aholi daromadini oshirish, turmush darajasini sifat jihatdan tubdan o‘zgartirish hamda mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirishda asosiy o‘rinlardan birini egallaydi.

O‘zbekiston zamonaviy turizm industriyasini rivojlantirish uchun barcha zarur resurslarga ega. Buyuk Ipak Yo‘li ustida joylashgan Vatanimiz qulay tabiiy-iqlim sharoitlariga, boy tarixiy, madaniy merosga va ayni paytda ham ichki, ham xalqaro turizmni rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga ega. Bugungi kunda dunyoviy ahamiyatga molik yuzlab tarixiy yodgorliklar, yurtimizda yashayotgan xalqlarning ma’naviy-etnik merosi, tog‘lar, dasht va cho‘llarni o‘z ichiga olgan go‘zal hamda betakror tabiati hamda zamonaviy infratuzilma – bularning barchasi dunyoning turli burchaklarida yashaydigan xalqlarni O‘zbekistonga jalb qilmoqda.

Ammo, ta’kidlash lozimki, hududlarimizning turistik salohiyati hamda resurslari hali to‘laligicha o‘rganilgani yo‘q. Ayrim hududlardagi resurslar faqatgina mahalliy aholigagina ma’lumligicha qolmoqda. Shunday ekan, ulardan turizm sohasida foydalanish uchun har tomonlama tadqiq qilish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan bo‘lib hisoblanadi.

Turistik faoliyatni amalga oshirishning barcha jarayonlari hamda bosqichlari turizm salohiyatini yanada oshirishga qaratilishi kerak. Bu holatda turizm industriyasining mavjud barcha imkoniyatlari aniqlanadi. Turizm industriyasining biznes imkoniyatlarini yanada yaxshilash uchun ushbu salohiyat aniqlangach, barcha e’tibor turizm tarkibining eng asosiy yo‘nalishlariga qaratilishi lozim bo‘ladi. Ushbu imkoniyatlarni yuzaga olib chiqishda “turistik salohiyat” tushunchasi rivojlanishda muhim omil sifatida maydonga chiqadi.


“Turizm salohiyati” deganda ma’lum bir destinatsiyaning mavjud tarixiy-madaniy, tabiiy obyektlari, turistik faoliyatni amalga oshirish uchun zaruriy ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik shart-sharoitlar hamda omillar to‘plamini tushunish mumkin. Mazkur tushunchani mintaqaviy va hududiy masshtabda qo‘llash mumkin hamda bu esa turizm sohasini samarali rivojlantirish imkoniyatlarini belgilaydi. Ya’ni, ma’lum mintaqaning turistik salohiyatini aniqlashdan avval salohiyatga doir konseptual yondashuvlarni chuqur tahlil qilish har tomonlama maqsadga muvofiqdir. Ushbu imkoniyatlarni yuzaga chiqarishda esa “turistik salohiyat” tushunchasi turizmning asosiy g‘oyasini rivojlantirish omili sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir turistik destinatsiyaning turistik salohiyati vaqt o‘tib borishi bilan yoki ijobiy, yoki salbiy tomonga o‘zgarib boradi. Ya’ni, turistik salohiyatning tuzilishi, qamrovliligi hududning ijtimoiy taraqqiyoti hamda rivojlanish darajasi ta’sirida o‘zgarib turadi. Shuning uchun, har bir mintaqaning mavjud turistik salohiyatini yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Uning shakllanishi iqtisodiy, siyosiy, geografik, tarixiy, tabiiy, huquqiy, ekologik, tibbiy, infratuzilmaviy, texnologik, tashkiliy, innovatsion, demografik, ijtimoiy, madaniy shart-sharoit va omillarga bog‘liq bo‘ladi.

Hududlarining turistik salohiyati tarkibi turistik resurslar va turizm infratuzilmasi unsurlaridan iborat bo‘ladi (1-rasm).

Turizm salohiyati turli tarkibiy unsurlardan tashkil topgan bo‘lib, mazkur unsurlar mintaqaning turistik salohiyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur holatlarda turistlar uchun turistik sayohatlar tashkil etiladi va amalga oshiriladi. Ya’ni, ko‘p hollarda turistlar biror mamlakatga kelishlari, istiqomat qilishlari, tarixiy va madaniy obyektlarga, muzeylarga tashrif buyurishlari, hududda o‘tkazilayotgan tadbir va festivallarda ishtirok etishlari mumkin. Bu esa o‘z navbatida tarixiy-madaniy merosni asosiy turistik resursga sifatida ko‘rilishiga sabab bo‘ladi hamda hududning turistik salohiyatini yanada oshiradi.



1-rasm. Hududlarining turistik salohiyati tuzilishi

Fikrimizcha, har bir mintaqaning turistik salohiyati turli tuman sharoit hamda qator omillarga bog‘liq hamda ular o‘z xususiyatlariga ega ekanligi bilan ajralib turishadi.

Mintaqaning turizm salohiyati - tabiiy, tarixiy va madaniy obyektlar va hodisalar, shuningdek, hududda turistik faoliyatni tashkil etish uchun ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik zaruriyat majmuasidir. Mintaqaning turizm salohiyati tarkibini o‘rganishda asosiy masala uni tizim sifatida ko‘rib chiqishdir. Tizim - bu bir-biri bilan aloqada bo‘lgan va yaxlit ta’limni tashkil etuvchi o‘zaro ta’sir qiluvchi unsurlar to‘plamidir. Biroq, turizm va uning salohiyatini tahlil qilishda tizimli yondashuv yaqinda qo‘llanila boshlangan.

Tuzilmaviy jihatdan mintaqaning turistik salohiyati o‘zaro bog‘liq va ta’sir qiluvchi salohiyatlar to‘plami sifatida ifodalanishi lozim: ya’ni, tabiiy resurslar, tarixiy va madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy salohiyat.

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlanishni ta’minlovchi omil – salohiyat tushunchasi sohaviy fanlarda o‘rganilib, sohalarga tatbiq qilinadi. Bu borada mintaqa uchun salohiyat tarkibi turli qismlardan iborat bo‘lishi lozimligi aniqlandi.

Hududlarda turizm salohiyatidan samarali foydalanishda uni samaradorligini oshirish ahamiyat kasb etadi. Bu borada turizmi salohiyatini oshirish mexanizmlaridan samarali foydalanish lozim. Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini joriy qilish, turizm strategiyasi mexanizmlarini takomillashtirish va innovatsion-investitsion rivojlantirish maqsadga muvofiq. Ularni amalga oshirish uchun soha imkoniyatlaridan samarali foydalaniladi.

Hududiy turizm salohiyatini oshirish qator ustuvor yo‘nalishlarga ega. Ya’ni, boy turizm salohiyat barcha imkoniyatlar majmui bo‘lib, moddiy madaniy meros obyektlaridan ham samarali foydalanish zarur. “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil” dasturi asosida amalga oshirilayotgan tadbirlar, turizmning yangi va zamonaviy turlarini joriy qilish, infratuzilmani yanada rivojlantirish, hududlar salohiyatini aniqlash hamda faol foydalanish, xalqaro madaniy aloqalarini

kuchaytirish turizmni hamda uning yangi turlarini rivojlantirishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakatimiz sharoitida turizmning yangi, zamonaviy va istiqbolli turlarini yanada rivojlantirish, har bir hududning imkoniyatlarini aniqlagan holda aniq kategoriyalarga ajratish, hududlarning turistik salohiyatini oshirish yuzasidan chuqur ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish lozim. Bu esa, hududlar salohiyatidan kelib chiqqan holda hudud turizmini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish, mavjud salohiyatdan to‘liq foydalanish imkoniyatlarini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Perezidentining 2023-yil 26-apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-135 sonli Qarori.

2. Boltabayev, M. R., Tuxliyev, I. S., Safarov, B. Sh., & Abduhamidov, S. A. (2018). Turizm: nazariya va amaliyot: darslik. Toshkent: Fan va texnologiya.

3. Бердимуродов, А. «Свободная туристическая зона – отличная возможность для экстенсивного развития туризма в нашей стране». Экономика и инновационные технологии, вып. 2, апрель 2018 г., сс. 167-75, https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/9700.

3. Po‘latov, M.E. Hududlarning turistik imkoniyatlaridan samarali foydalanishda oliy ta’lim muassasalari ishtirokini ta’minlash. “Servis” ilmiy-amaliy jurnali, 2023 yil maxsus soni. 5-10 b.

А.Тураев **Теоретические основы и принципы разумного использования территорий в туризме** **Аннотация.** В статье проведено исследование вопросов рационального использования туристского потенциала регионов в развитии туристической отрасли нашей страны и сделаны соответствующие выводы. **Ключевые слова:** туризм, регион, туристский потенциал, продуктивность, туристская инфра-структура, туристский ресурс, природные ресурсы.	**A.Turaev** **Theoretical foundations and principles of rational use of territories in tourism** **Abstract.** The article studies the issues of rational use of the tourist potential of regions in the development of the tourism industry of our country and draws appropriate conclusions. **Keywords:** tourism, region, tourism potential, productivity, tourism infrastructure, tourism resource, natural resources.

Ойдин Давроновна Хамракулова – к.э.н., доцент кафедры «Яшил иқтисодиёт ва барқарор бизнес» Самаркандский филиал Ташкентский государственный экономический университет

ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И ЭКОЛОГИЧЕСКИЙ ТУРИЗМ В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. Современные тенденции экономического развития стран показывают появление новых направлений экономики таких как зеленая экономика. В работе рассмотрена необходимость расширения экологического туризма в фазе становления устойчивого развития экономики, предложены конкретные рекомендации по улучшению развития экологического туризма в Узбекистане.

Ключевые слова: экономика, зеленая экономика, туризм, экологический туризм, государственное регулирования экономики, гибкий экономический механизм, инфраструктура туризма, рыночные инструменты.

Введение. Глобализация мирохозяйственных связей тесно связана с климатическими изменениями, истощением природных ресурсов. В этой связи, роль и значение зеленой экономики возрастает, что определяет её как важный фактор устойчивого развития экономики любой страны.

«Зеленая» экономика может ответить на самые важные задачи природоохранения, воздействия на окружающую среду, усиление защиты экосистемы и ее услуг, повышение ресурсной, углеродной, материальной эффективности, а также укрепления здоровья и благосостояния. Учитывая преимущества зеленой экономики, ее роль в достижении устойчивого развития является неоспоримой, так как обеспечивает охрану окружающей